

Erkin Vohidov she'riyati tilida takrorlar

Haydarova Rushana

"Ideal study"

xususiy maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu ishda Erkin Vohidov she'riyati tilidagi reduplikativ birliklarning so'zlovchi-shoirning maqsadi, nutq vaziyati, davr, sharoit va tinglovchi-she'rxon bilan bog'liq nutqiy-kontekstual, yashirin mano-vazifalarga ega badiiy nutq vositalari sifatida talqin qilish o'zbek tilshunosligining kun tartibidagi dolzarb masala ekanligiga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: reduplikatsiya, takror, badiiy takror, fonetik takror, leksik takror, morfologik takror, sintaktik takror, kontakt takror, distant takror

Bugungi kunda jamiyatning taraqqiy etishi, avvalo, fanning oldiga insonning mustaqil va farovon hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan amaliy ahamiyatga molik mazmun-mohiyatga ega tadqiqotlar yaratish talabini qo'yimoqda. Bu ilm-fanning barcha sohalarida, xususan, tilshunoslik sohasida ham yangicha yondashish va zamon talabiga javob beradigan tadqiqotlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatadi. Bizga bu borada muhim yo'llanma bo'lib xizmat qilayotgan Prezidentimiz SH. Mirziyoyevning quyidagi so'zlari ham shundan dalolat berib turibdi: "Umuman, men fanni ilgor, taraqqiyot, progress degan so'zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligi, mustaqil bo'lgan millatning kelajagi buyukligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olga siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim"¹.

O'zbek tilshunosligida badiiy nutq uslubidagi takrorlar asosan uch yo'nalishda muayyan darajada tadqiq qilingan: 1. Lingvistik nuqtayi nazardan. 2. Lipgostilistik va lingvopoetik nuqtayi nazardan. 3. Badiiy san'atlarning o'ziga xos turi sifatida. Birinchi turdagi ishlarga "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Ona tili" nomidagi darslik, o'quv qo'llanmalari hamda o'zbek tili grammatikalarida uchraydigan takrorlarga oid ma'lumot-fikrlarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruh materiallari badiiy til stilistikasi, lingvostilistika va lingvopoetikaga bagishlangan

ishlardagi badiiy takrorga oid fikr-mulohaza, kuzatishlardan iborat. Chunonchi, P.Qo'ng'urov, S.Karimov, X.Doniyorov va b., B.Yo'ldoshev, M.Yo'ldoshev, N.Afoqova, G.Muhammadjonova, D.Shodiyeva, N.To'lanova, S.Boboeva, S.Boymirzaeva, R.Shukurov ishlari² shular jumlasidandir. Uchinchi guruh kuzatishlariga I.Sultonov, T.Boboevlarning adabiyot nazariyasiga oid ishlarini, shuningdek, badiiy san'atlar va ularning turlarini maxsus yoritishga bagishlangan Yo.Isxoqov, A.Hojiahmedovlarning tadqiqotlarini hamda adabiyotshunoslik terminlarining izohli lugatlari (H. Homidiy va b., N.Xotamov va b., A.Hojiahmedov)dagi mulohazalarni kiritish mumkin.

Qayd qilinganlarga qaramasdan, umuman, badiiy takrorning uslubiy, lingvopoetik xususiyatlarini alohida olingan biror shoir she'riyatidagi badiiy takrorlarning badiiy-funksional xususiyatlarini tekshirish misolida ko'rsatib berish mummoning serqirra va keng ko'lamlilik ekanligi bois dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu fikr atoqli shoir Erkin Vohidov she'riyatidagi badiiy takrorlarga ham to'lig'icha tegishlidir.

1. Takroriy vositalar badiiy tilning badiiyati, obrazlilik va ta'sirchanligini ta'minlaydigan badiiy san'atlarning biri bo'lib, uning emotsional-ekspressiv tasvir va ta'sir imkoniyatlari badiiy tilda, ayniqsa, Erkin Vohidov she'riyati tilida to'liq namoyon bo'ladi.

2. Erkin Vohidov she'riyati tilida badiiy takrorlarning deyarli barcha ko'rinishlari mavjud bo'lib, shoir ulardan o'z she'rlari tilining obrazli, ta'sirchan, original hamda yuksak badiiyat talablariga javob bera oladigan vosita sifatida mohirona foydalangan.

3. Erkin Vohidov she'riyati sodda, ravon, xalqchil vositalarga boy bo'lib, bu xususiyatlar orqali shoir soddalikdan murakkab badiiy usullar tomon, murakkab obrazlilikka intilgan. Shu sababli badiiy takrorlarni yaratishda xalq tilining fonetik-orfoepik (fonostilistik), lug'aviy-ma'naviy hamda mumtoz she'riy obrazlarning yuksak uyg'unligiga erishgan.

4. Erkin Vohidov she'rlari mayin va ravon talaffuz qilinuvchi ohangdor so'z va iboralarga boydir. Ushbu vositalar, bir tomondan, shoir she'rlarining yuksak badiiyatini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, uning she'rlariga soddalik, xalqchilik va o'ziga xoslik bagishlagan.

5. Erkin Vohidov takrorning badiiy-lisoniy usul sifatidagi ko'pgina turlaridan foydalangan. Ularni ko'p o'rinlarda o'ziga xos tarzda qo'llagan. Bunday o'ziga xosliklarning asosida takror usuli imkoniyatlariga ijodiy yondashish, ularga milliy

² Adabiyotlar ro'yxatiga qarang.

ruh, xalqchillik bagishlash va badiiy did nuqtayi nazardan baholab qo'llash tamoyillari yotadi.

Erkin Vohidov she'riyatida fanda reduplikatsiya deb yuritiluvchi badiiy takrorlarning g'oyat go'zal namunalari yaratilgan. Birgina "Qaro qoshing" she'rini eslashning o'zi kifoya. O'zbek she'riyatida "q" undosh tovushi bilan bog'liq bunday ta'sir kuchi so'zma-so'z kuchayib alliteratsiya ilk bor dunyo yuzini ko'rgan. E'tibir bering: *Qaro qoshing, qalam qoshing, Qiyiq qayrilma qoshing, qiz. Qilur qatlima qasd qayrab – Qilich qotil qaroshing, qiz. Qafasda qalb qushin qiynab, Qanot qoqmoqqa qo'ymaysan. Qarab qo'ygil qiyo, Qalbimni qizdirsin quyoshing, qiz.* Erkin Vohidov she'riyatida redupplikativ birliklarning ko'pchiligi muallif mahorati tufayli ana shunday so'nati darajasiga ko'tarilgan.

She'riyatda takrorning o'rni nasrga qaraganda nihoyatda salmoqli. Umuman, she'riyat tilini turli xil badiiy takrorlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, badiiy takror she'riyat tlining ajralmas qismi, yashash formasi. She'rlar mutanosib ritmik miqdorlar – bo'g'inlar, urg'u, misralar, misralarning aniq almashinishi asosida qurilgan. Qofiya va boshqa tovush moslashuvlari fonetik-tovush takrorlarini hosil qiladi. Shu ma'noda she'riyat tilining fonetikasi deb bemalol gapirish mumkin. Quyida dastlab shu haqda fikr yuritimiz. Badiiy asar fonetikasi haqida gap ketganda, uning yozilish vaqti, o'rni, shu makon va zamondagi til xususiyatlari, tovushlar miqdori va variantlari, fonetik qonuniyatlari, tovush juftlari va transformatsion xususiyatlari, transkripsiyasi, qaysi tildan olinganligi yoki o'z qatlam tovushi ekanligi, urg'u tushish o'rinlari, bo'g'inning holati, ohang jihatlari kabi xususiyatlar haqida gap boradi. Fonografik stilistika ma'lum badiiy yoki poetik asarning fonetik birliklar vositasida shakllangan musiqiylik, jarangdorlik, evfonik vazifa bajarayotgan fonetik birliklarning funksional-ekspres-siv, akkumulyativ, appelyativ xususiyatlarini, she'riy san'atlarning tovush, urg'u va bo'g'in orqali yuzaga keltirishdagi rolini qofiya va uni yuzaga keltiruvchi tovushlar tizimi kabilarni o'rganadi. Badiiy asarning fonetik tahlilida esa, uning funksional-estetik qimmati emas, balki asardagi tovushlarning fizik-fiziologik, artikulyatsion xususiyatlari ochib beriladi.

Shoirning she'ri qachon she'rga aylanadi. Qachonki, xalq tilidan tushmaganda, odamlar qalbidagi yashagandagina u haqiqiy san'at namunasiga aylanadi. Erkin Vohidov she'rlari ana shunday she'rlardan sanaladi. Uning she'rlarini xatto oddiy kishilar ham maroq bilan o'qiydi. Sabab shundaki, uning ijodida so'zlarda g'alizlik kuzatilmaydi. Bir narsani qiyoslashda hayotiy o'xshatishlardan foydalanadi. Qofiyalari biri-biriga hamohang, so'zlar

xushohang, vaznda ortiqchalik sezilmaydi. Bu esa shoirning yuksak iste'dodini anglatadi.

So'z topolmay manglayimda ter,

Shoirlardan doimo talab:

O'qimog'i kerak yangi she'r

Va aytmog'i kerak yangi gap ("Oqshom").

Erkin Vohidovning bu baytiga e'tibor bersak, shoir o'z ustida ishlashini, talabchan bo'lganligini va boshqa ijodkorlardan ham shuni kutishini bildirgan. She'riyat olamida g'azal janri ham borki, bu janrda barcha ijod ham jazmqilavermaydi. Negaki, bu janrda oz so'z qo'llab ko'p ma'no ifodalamog'i kerak. San'atning boshqa turlaridan ko'ra ko'proq talant va mahorat talab qiladi. Shoirimiz bu janrda ham qalam tebratdi va she'rsevarlar qalbidan joy ola bildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo'ng'urov, X. Rustamov. O'zbek tili stilistikasi. T.: O'qituvchi, 1983.
2. R. Qo'ng'urov, S. Karimov, T. Qurbonov. O'zbek tili funktsional stillari. S. SamDU nashri, 1984.
3. Yo. Tojiev, N. Hasanova, H. Tojimatov, O. Yo'ldosheva. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari (ommabop qo'llanma). T., 1994
4. Курбанова Д. И. ПРИМЕНЕНИЕ НЕСТЕРОИДНЫХ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ ПОЯСНИЧНОЙ БОЛЬЮ //Экономика и социум. – 2022. – №. 1-1 (92). – С. 569-573.
5. Шадманов А. К. и др. Нормальные ультразвуковые размеры предсердий и желудочков сердца у людей в возрасте 25-64 лет //Сеченовский вестник. – 2013. – №. 2 (12). – С. 52-56.
6. Харламова Ф. С. и др. Патогенетическое обоснование применения Имунорикса при ОРВИ у часто болеющих детей //Детские инфекции. – 2008. – Т. 7. – №. 4. – С. 41-46.
7. Курбанова Д. И. КОМБИНИРОВАННАЯ АНТИГИПЕРТЕНЗИВНАЯ ТЕРАПИЯ АРТЕРИАЛЬНОГО ДАВЛЕНИЯ У ПАЦИЕНТОВ С МЕТАБОЛИЧЕСКИМ СИНДРОМОМ //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-2 (108). – С. 797-804.
8. Курбанова Д. И., Косимхожиев М. И. КЛИНИЧЕСКИЙ ОПЫТ ПРИМЕНЕНИЯ ЦЕФАЛОСПОРИНА V ПОКОЛЕНИЯ ЗИНФОРО //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-2 (109). – С. 820-823.

9. Курбанова Д. И. ФАКТОРЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ НЕСТЕРОИДНЫХ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ У ПАЦИЕНТОВ С ПОЯСНИЧНОЙ БОЛЬЮ // Экономика и социум. – 2024. – №. 1 (116). – С. 1028-1031.
10. Курбанова Д. И. ПАТОГЕНЕЗ И МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ НЕСТАБИЛЬНОЙ СТЕНОКАРДИИ В ФАРМАКОТЕРАПИИ // Экономика и социум. – 2024. – №. 1 (116). – С. 1032-1035.